

**P.Q. XOLMATOV
SH.SH. YO'LDOSHEV**

**GULISTON MAKTABGACHA TA'LIM VA
XIZMAT KO'RSATISH KASB – HUNAR KOLLEJI**

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA
TEXNOLOGIYA FANIDAN AMALIY ISHLAR
(uslubiy ko'rsatma)**



GULISTON - 2017

Tasviriy san'at, mehnat va musiqa kafedrası.

Mazkur uslubiy ko'rsatma Guliston MT va XKKHK Ilmiy-kengashining 25 avgust 2017-yil 1-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

ANNOTATSIYA

Ushbu uslubiy ko'rsatma oliy o'quv yurtlarining "Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish" ta'lim yo'nalishi talabalari, umumta'lim maktab o'quvchilari, to'garak rahbarlari va ilmiy tadqiqot ishi bilan shug'ullanadigan magistrantlari, pedagogika kasb-hunar kolleji o'qituvchilari hamda maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilariga qo'l mehnatidan amaliy ishlar bajarish uchun mo'ljallangan.

Tuzuvchilar: katta o'qit. SH.SH. Yo'ldoshev
o'qit. S. Holiqova GMT va XKKHK

Taqrizchilar: p.f.n., dotsent R.N. Ergashev

Muharrir: f.f.n., dotsent J. Abdullayev

Birovning bergani ko'rgulik,

*Mehnatning bergani to'ygulik.
O'zbek xalq maqoli*

KIRISH

Respublikamizda amalga oshirilayotgan ma'naviy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning zamonaviy bosqichi o'quvchi shaxsi shakllanishida mustaqillik va erkinlikni ta'minlashning yangi qirralari ochib berilayotganligi bilan tavsiflanadi. Bu boradagi milliy ta'limimizning asosiy g'oyasi va mazmuni «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida o'z ifodasini topgan. O'quvchi shaxsining kasbiy bilim olishdagi yo'nalishni ixtiyoriy tanlashi uchun sharoit yaratishda, avvalo, uni mustaqil, erkin fikrlovchi sifatida shakllantirish muammosining yechimi o'qituvchi tomonidan ta'limni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishga bog'liqdir.

Respublikamizda «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va Davlat ta'lim standartlari talablariga mos keladigan ta'lim texnologiyalarini yaratish dolzarb muammoga aylandi. An'anaviy ta'lim tizimidan farqli ravishda, ta'limni yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda darslar samarali natija berib, o'quvchilarni bevosita o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Respublika hukumati va prezidenti olib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatda mamlakat hayotining barcha jabhalarini rivojlantirishga, ayniqsa, kelajak avlodni milliy tiklanish mafkurasi ruhida tarbiyalashga juda katta e'tibor berilmoqda. Hozirgi kunda ta'lim olayotgan yoshlar Respublikamizning kelajagidir. Bu sharaflı vazifani bajarish o'qituvchilar zimmasiga tushadi. Shu sababli yuksak malakali o'qituvchilar tayyorlash va ularning malakasini oshirish masalalariga katta e'tibor qaratilyapti.

Prezidentimiz o'zlarining "Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati" nomli risolalarida shunday deb ta'kidlaydilar: "Tarbiyachi ustoz bo'lishi uchun boshqalarning aql-idrokini o'stirish, ma'rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun, avvalo, tarbiyachilarning o'zi ana shunday talablarga javob berishi, ana shunday fazilatlarga ega bo'lishi kerak". Bu jumlar o'z navbatida o'qituvchi-tarbiyachilarning yuksak kasbiy va shaxsiy fazilatlar egasi bo'lishini taqozo etadi. Shuning uchun ham o'qituvchi oldiga qo'yilgan vazifalar o'ta murakkab, mas'uliyatli va ayni paytda sharaflidir.

Rivojlangan davlatlar safidan o'rin olishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan O'zbekistonimiz, xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari kabi ta'lim sohasida ham ilg'or texnologiyalarni joriy etish va shu orqali ta'lim mazmunini jahon andozalari darajasiga olib chiqishga harakat qilmoqda.

Hozirgi paytda oliy ta'lim muassasalarida va kasb-hunar kollejlarida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash va zamonaviy o'quv uslubiy majmualarni ishlab chiqish muammolariga qaratilgan diqqatga sazovor ishlar amalga oshirilmoqda.

Qog'oz ishlab chiqarish bo'yicha qisqacha ma'lumot

Qog'oz ixtiro qilinganiga 2000 yilga yaqin vaqt o'tgan bo'lsa-da, unga bo'lgan talab hali hamon o'zgarmasdan kelmoqda. Shu sababli qog'oz ishlab chiqarish texnologiyasi va texnikasi yildan – yilga takomillashtirilmoqda.

Kelajakda qog'ozning vazifasini nima bajaradi? Elektronika - kompyuter texnikasi, juda yaxshi, ishchi qog'oz vazifasini bajarishi mumkin.

Lekin bu badiiy asarlar, darslik va o'quv ko'rsatmalar o'rnini bosa oladimi? Cho'l, tog', o'rmon va muzliklarda hayot kechirayotgan odamlar qog'ozda ifodalangan materiallardan kompyuter yordamida bajara oladimi?

Elektronika texnikalari elektr energiyasiz ishlay olmaydi, kompyuter yoki orgtexnika ishdan chiqsa, unda yozilgan o'nlab kitoblar shu ondayoq yo'qqa chiqadi. Shu sababli, qog'oz hali ko'p yillar insoniyatga xizmat qiladigan ko'rinadi.

Qog'oz qadim zamonlardan buyon insoniyatni o'ziga maftun qilib kelgan. qog'oz (bumaga) Italyanacha bambagia, grekcha babakion - paxta demakdir. Birinchi bo'lib qog'oz ishlab chiqarish Xitoyda, eramizdan biroz oldin o'zlashtirilgan. Xomashyo sifatida avval ipak tolalari, keyinchalik tut daraxtidan olingan lub, kanop tolalari, bambuk va boshqa tabiiy tolalar ishlatilgan. Tabiat va inson qo'li bilan yaratilgan bu qog'oz o'zining ajoyib xususiyatlari bilan bizning zamonamizda ham bebaho material sifatida insoniyatga xizmat qilib kelmoqda.

Bizning xududimizda esa birinchi bo'lib qog'oz ishlab chiqarish Samarqand shahrida, 751- yildan boshlangan.

Mazkur hunarmadchilik sohasining rivojlanishiga mamlakatimiz hududida yetishib chiqqan qog'ozgir (qog'ozchi, qog'ozrez) ustalar katta hissa qo'shganlar. Bionabarin, bu sohani atroflicha o'rganish tariximiz va madaniyatimizning ko'pgina muammolarini hal etishda asqotadi.

Darvoqe, qog'ozning yuzaga kelishi uchun muayan shart-sharoitlar, amaliy bilim hamda tajriba bo'lishi lozim. Eng avvalo, o'sha makonda qog'oz ishlash uchun zaruriy xomashyo, maxsus qozonlar bo'lmog'i kerak.

Bunday imkoniyatlar qamma joyda ham muhayyo bo'lgan emas, albatta. Shuning uchun qog'oz ishlab chiqarish turli mamlakatlarda, turli davrlarda va ko'lamlarda yuzaga keldi.

Mashhur ajdodlarimiz Moti Chandr, Mustafu Ali Chalabiy, Sodiqbek Afshorlarning yozishicha, ko'hna Samarqandda VIII asr o'rtalariga kelib qog'oz tayyorlash keng rivoj topgan edi.

Bu davrda Samarqandda qog'oz kitob tayyorlangan. Shaharning qog'oz ustaxonasida ishlangan qog'oz sifati xususida Sulton Ali Mashhadiy, Ibn al-Faqiq, al-Hamadoniy, Abu Mansur Saolibiyning yozma manbalarida ham munosabat bildirilgan.

Jumladan, Abu Mansur Saolibiy hazratlari: "Samarqandga xos narsalardan biri uning qog'ozi bo'lib, bu qog'oz Misr qog'ozidan ustun turadi. Bu qog'oz juda chiroyli, nozik, nafis va yozish uchun juda qulaydir", deb yozadilar.

Qog'ozning kashf etilishi kitob va kitobchilik san'ati tarixida, savodxonlik borasida yangi davr ochdi. Arablarning O'rta Osiyodagi istilosiga qadar ko'p nodir kitoblar saqlangan kutubxonalar bo'lgan. Qog'ozning sharofati bilan tarixchi, kotib, qog'ozchi, muqovasoz (saqqof), kitob varaqlariga jilo beruvchi (lavoq va shu kabi) kasb sohiblari yetishdi. Ayniqsa, nafis kitob yaratish o'ta murakkab, u qog'ozrez (qog'oz tayyorlovchi, qog'ozgir)ning meqnat, mahorati va malakasi bilan chambarchas boqliq edi.

Mashhur Samarqand qog'ozlari silsilasida Ali Afandi "Manoqibi hunarvoron" asarida "xatma", "sultoniyy" va "nuqyar" degan nomlarni keltiradi. Bu nomlar qog'oz tayyorlash texnologiyasi bilan boqliq.

Moziyda qo'li gul qog'ozchi ustalar mos paxta tolasi va paxta momig'idan xomashyo tariqasida foydalanib, xatma qog'oz tolasidan esa haririy qog'oz ishlagan. Kitobchilarga yana "suvbelgili", "sultoniyy" va "nuqayar" qog'ozlar ham maxsus tayyorlab berilgan.

Har bir kitob qog'ozidan muqovasiga, siyohidan to bo'yoqlari-yu zarhalligicha ma'lum me'yorda modda, reja, tartibot asosida tayyorlangan, hatto kitobning qog'oz varaqlaridan hidi anqib turishi uchun ba'zan siyohga gulob yoki anbar qo'shilar edi. Shunday qilib, qog'ozgirlik o'ziga xos san'at darajasiga yetkazilgan.

Xomashyo begona aralashmalardan tozalangach, maxsus ishlangan parraklarda maydalangach, objuvoz bilan harakatga keltirilib bo'tqa hosil etilgan. Suyuqbo'tqa maromiga yetkazilgach, boshqa idishga quyib olinib, sariq tusdagi bo'yoq bilan aralastirilgan.

So'ngra kunni tunga ulab, kamida 5000 marta tepkilab, chiya o'simligi va ot qilidan yasalgan to'rda suzilib olingach, yapasqi og'ir yuk ostiga bostirib qo'yilgan. Nihoyat, qog'oz ashyosi (sellyuloza) qog'oz shakliga keltirilgach, nam holda yoyib tep - tekis sathda quritilgan. Bir qog'ozgir usta o'z ustaxonasida tunu - kun ishlab, atigi 300 varaq qog'oz tayyorlagan. Yil davomida ular 7 oy mehnat qilib, shu vaqt mobaynida buyurtmachilarga jami 25 000 varaq atrofida qog'oz tayyorlab berishgan.

Temuriylar hukmuronligi davrida, shunday usulda qog'oz ishlab chiqarish alohida o'rin tutgan. Shahar yaqinidagi qorasuv arig'i sohilida qog'oz ishlab chiqariladigan maxsus objuvoz va korxonalar bo'lganligi ma'lum.

Bu yerda eskirgan bo'z kiyim, latta, va paxtalardan qog'ozbop bo'tqa xom ashyosi tayyorlab, varaqlar quyilgan, so'ngra ularga qo'lda mohirona sayqal berilgan. 1460 yillarda bu ustaxonalar hazrat Xo'ja Ahror Valiy mulkiga aylangan.

Shundan so'ng qog'oz ishlab chiqarish birmuncha rivojlandi. Xo'ja Ahror Valiy ustaxonalariga yaqin yerlarda bir necha do'kon qurdirib, qog'oz savdosini qam kengaytirgan. Afsuski, yong'in tufayli bu ustaxonalar va do'konlar katta talofat ko'rgan. Samarqand qog'ozi O'rta asr sharq xattotlari orasida qoyat qadrli bo'lib, muayyan qismi o'lkalarga ham chiqarilgan. Qog'ozning ko'payishi ilm, ma'naviyat va ma'rifat nurlarining taralishiga katta imkoniyat yaratdi. Biz bayon etgan texnologiya, asosan, 1200 yil davom etdi.

Qog'oz – jamiyat taraqqiyotida eng yirik kashfiyotlardan biri hisoblanadi. Hozirda olimlar ixtirochi deb xitoylik Say – Lunni tan olmoqdalar.

Xitoy manbaalarida yozilishicha, Say – Lun eramizning 105 – yilida tolali daraxt qobig'i, latta va eskirgan baliq to'rini maydalab, qog'oz olishni ixtiro qilgan.

Bu ixtiro bir necha yillar o'ta maxfiy tutilib, ma'lumotlarni tarqatganlar o'lim jazosiga hukm etilgan.

Shunga qaramasdan qog'oz olish usuli sekin asta Xitoy bilan qo'shni mamlakatlarga tarqalgan.

Oradan ming yillar o'tgach Yevropaliklar ham qog'oz olish sirini bilib olishgan.

Yillar o'tgan sari qog'oz ishlab chiqarish texnologiyasi takomillashib bordi, yangi xomashyo turlari o'zlashtirildi.

Bizning zamonamizga kelib, dunyoda qog'oz sanoati yiliga 415.000000 tonnadan ko'proq qog'ozning 600 dan ko'proq turini ishlab chiqarmoqda. MDH mamlakatlarining o'zida 50.000000 mln tonna qog'oz tayyorlanadi. Qog'oz tayyorlash uchun dastlab yog'och bolg'a (to'qmoq)dan foydalanilgan.

Keyinchalik pichoqli maydalagichlar qo'llanilgan. Ayrim manbaalarga qaraganda, yog'och, bambuk va ipak yozuv materiali sifatida ishlatilgan.

Mustaqillik davrida mamlakatimizda qog'oz ishlab chiqarish yuqori bosqichlarga ko'tarildi. Avval yagona "O'zbek qog'oz" OAJ ishlab turgan bo'lsa, hozirgi kunda qog'oz ishlab chiqaruvchi korxonalar soni 6 taga yetdi.

- 1.«O'zbek qog'oz» OAJ (Toshkent shahri).
2. «Sanoatqalinqog'ozsavdo» (Angren).
3. Toshkent qog'oz fabrikasi (Toshkent viloyati).
4. «Nambum» qK (Namangan shahri).
5. «Yangiyo'l qog'oz fabrikasi» (Yangiyo'l shahri).
6. Farqona qog'oz (Farqona shahri).

Shuningdek, mamlakatimizda qog'oz ishlab chiqarishni jadal rivojlanishda turli korxonalar qatori, bu sohada yosh va yetuk malakali mutaxassis-kadrlarni tayyorlashda Toshkent kimyo texnologiya instituti va Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutlarida bir qator olimlarimiz, jumladan, akademik Yu.T. Toshpo'latov, prof. q.R. Rahmonberdiyev, prof. M.T. Primqulov va boshqalar katta xizmat ko'rsatib, O'zbekiston qog'ozining jahon standartlari darajasiga pishiq va sifatli bo'lishida munosib hissa qo'shmoqdalar. Bugun O'zbekiston qog'ozining qo'shni mamlakatlar va Yevropa bozorlariga ham kirib bo'lgani buning yaqqol isbotidir.

**Boshlang'ich sinf mehnat talimi darslarida qog'oz bilan ishlashga
o'rgatishning maqsad va vazifalari**

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ko'zda tutilgan asosiy vazifalardan biri ta'lim tizimini zamonaviy o'quv adabiyotlari va yangi pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlashdan iboratdir.

O'qitish jarayonining vazifasi ta'lim, tarbiya va rivojlanish birligini ta'minlashni nazarda tutadi. Biroq kasbiy ta'lim yo'nalishlari bo'yicha pedagog kadrlar tayyorlashda ta'lim oluvchilarning qobiliyati, ong va ko'nikmalarini o'stirish, ilmiy-amaliy bilimlarini chuqurlashtirish muammosi bundan ham muhimroq. Bu xususiyatlar kelajakda ta'lim oluvchilar qobiliyatini rivojlantirishga, o'z kasblariga qiziqish va mas'uliyatning oshishiga yordam beradi. O'qitish jarayonida talim oluvchilarning ijodiy qobiliyatlarini o'stirish muammosi murakkab va ko'p qirrali. Shuning uchun ta'lim oluvchilarning ilmiy-nazariy va amaliy bilimlarini oshirishda ularning kasbga bo'lgan qiziqishi va qobiliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umumta'lim maktablari boshlang'ich sinflarida o'qitiladigan mehnat ta'limi fanining maqsadi - o'quvchilarni aqliy va jismoniy mehnat turlari, kasblar bilan dastlabki tanishtirish, kasb tanlashga tayyorlash, mehnatni qadrlash, mehnatga qiziqish hamda mehnatsevarlikni shakllantirish orqali ularning kasbgacha tayyorgarligini 5-sinf uchun uzviy bog'lanishini ta'minlashdan iborat. Bular ta'limiy-tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar hisoblanadi. Ularda davlat ta'lim standartlariga asoslangan yo'nalishlar mavjud bo'lib, quyidagicha ifodalanadi.

Ta'limning maqsadi - o'quvchilarning barkamol shaxs bo'lib shakllanishlari uchun ularga mehnat jarayonlari, kasblar asoslarini (texnologiyasini) o'rgatish, ularni kasb tanlash bilan uyg'unlashtirish orqali o'quvchilarning kasbgacha tayyorgarligiga zamin tayyorlashdan iborat.

Tarbiyaviy maqsad - o'quvchilarning mehnat ko'nikmalarini egallashlari jarayonida mehnat va kasbga munosabatlarini yuqori ahloqiy sifatlarini, mehnatsevarlik, insonparvarlik va tadbirkorlikni shakllantirishdan iborat.

Rivojlantiruvchi maqsad - mehnat va ta'lim mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilarga aqliy, jismoniy, ahloqiy, badiiy-estetik tarbiya va ta'lim berish orqali ularning barkamol shaxslar bo'lib yetishishlariga yordam berishdan iborat.

Nazorat maqsadi - o'quvchilarning dasturda belgilangan bilim, ko'nikmalarini Davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'zlashtirish holatini dastlabki oraliq va yakuniy nazorat qilishdan iborat.

Mehnat ta'limi - o'qituvchi rahbarligida o'quvchilar tomonidan bajariladigan aqliy va jismoniy harakatlar jarayonidan iborat bo'lib, yakuniy natijada ularning mehnat qurollari, vositalari va jarayonlari haqidagi bilimlarini hamda ma'lum sohadagi ishlab chiqarish mehnatini bajarish uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikma va malakalarni egallashlariga, ongli ravishda kasb tanlashga hamda jamiyat va shaxs farovonligi yo'lida mehnat faoliyatiga qo'shilishlariga imkon beruvchi shaxsiy sifatlarini va tafakkurlarini rivojlantirishga qaratilgan o'quv fani hisoblanadi.

Origami bu - qog'ozni buklash san'ati bo'lib, Yaponiyada paydo bo'lgan. Qog'oz Xitoyda paydo bo'lganiga qaramay, aynan Yaponiyada qog'ozni buklab, undan turli xildagi ajoyib shakllarni yasashni o'ylab topishgan.



“Origami” so’zi ikki “qog’oz” va ”buklash” so’zini birlashishidan hosil bo’lgan. Bu san’at Yaponiya madaniyatining ajralmas qismiga aylandi. Yaponiya an’analarida qog’ozdan yasalgan turli xil qushlar, hayvonlar, gullar shakllarining o’xshashligini qadrlabgina qolmay, balki ularni xuddi haqiqiy jonli tabiatga o’xshashligi ham qadrlangan. Bu his qog’ozni bir necha marotaba buklash orqali yetkazilgan.

Ilgari origamidani turli xil marosimlarda foydalanishgan. Masalan, baliq va sabzavot bo’lakchalari maxsus qog’ozdan yasalgan qutichaga qo’yib, xudolarga hadya qilingan.

Bir oz muddatdan keyin qog’ozdan shakllarni yasash yapon madaniyatining bo’linmas qismiga aylandi. Bu san’at avloddan-avlodga o’tgan. Ba’zi ziyoli oilalar origamidani gerb va muhr o’rnida foydalanishgan.

XVI asr oxirida origami yaponiyaliklarning marosim san’atidan sevimli mashg’ulotlariga aylangan. Aynan shu davrda ko’plab klassik shaklchalar paydo bo’lgan. Ko’plab mualliflik ishlari mashhur yapon ustasi Akiri Yashizavi nomi bilan bog’liq. Aynan u “origami alifbosi”ni o’ylab topgan.

Yoshizavi tomonidan o’ylab topilgan belgilar buklash bosqichlarini qog’ozga tushirishda muhim bo’lgan. Bu ajoyib kashfiyot origaming hamma tushunadigan tilga aylanishiga imkon berdi. Bugungi kunda origami san’atiga bag’ishlangan hamma kitoblarda Akiri Yashizavi “alifbosi”dan foydalaniladi. XX asr boshlarida origami butun jahon bo’ylab tantanali ravishda keng tarqala boshladi. Shunda bu san’at ancha qadimiy tarixga ega ekanligi ma’lum bo’ldi. Mualliflik origaming rivojlanishiga butun jahondan Deyv Brill (Buyuk britaniya), Peter Budai (Vengriya), Erik Juazel (Italiya), Ronald Hox (Singapur) va Robert Hang Djon Montrall (AQSH) kabi ustalar o’z hissalarini qo’shganlar.

Asosiy shakllarning o’zaro bog’liqlik chizmasi

1-: uy

2-: kitobcha

3-: eshik

4-: qayiqcha

5-: kvadrat qog'oz varag'i

6-: quymoq


7-: uchburchak

8-: varrak

9-: baliq

10-: qo'shaloq kvadrat

11-: qush



Qog'oz. Ma'lumki, qog'oz qadimgi Xitoyda ixtiro qilingan. Eramizdan avvalgi davrlarda Xitoyliklar yozish uchun bambuk taxtachalardan va shoyidan foydalanishgan ammo bu juda ham noqulay edi. Shuning uchun ham xitoylik donishmandlar qog'oz varag'ini ixtiro qilganlar. Bu ularga to'plangan bilimlarni avloddan avlodga shikastsiz yetkazish imkonini berdi. Xitoyliklar qog'oz ishlab chiqish sirini sir tutishgan. Ammo har qanday sir oshkor bo'ladi. Qadimgi afsonaga ko'ra qaysidir buddaviy kuzatuvchi ruhoni qog'oz ishlab chiqarish sirini yaponlarga oshkor qilgan Qog'ozni ishlab chiqarish siri oshkor bo'lganidan so'ng 100 yil o'tib yaponiyaliklar o'zlari qog'oz ishlab chiqarishni o'rganishdi.

Ishbilarmon yaponiyaliklar qog'ozdan faqatgina yozish uchun emas, balki undan soyabon, oyna, hattoki kiyimlar ishlab chiqarishda foydalanishgan.

“Origami” so'zi yapon so'zidan tarjima qilinganda “taxlangan qog'oz” ma'nosini anglatadi. Mashg'ulotga kirishganingizda unutmangki, har bir ish san'at asari darajasida bo'lishi uchun unga mos keladigan qog'ozni tanlash kerak. Yaponiyada qog'ozning o'nlab turlari mavjud bo'lib, origami uchun eng keraklisi **vasi** qog'ozini hisoblanadi. Ular hozirgacha kichik fabrikalarda qo'lda tayyorlanadi. Bu juda ham mustahkam qog'oz bo'lib, minglab bukishlarga bardosh bera oladi. Shuningdek, origami uchun belgilangan o'lchamda va turli xil rangdagi maxsus qog'ozlar sotiladi. Ba'zan ularga shakllarni qanday qilib yasash sxemasi qo'shib beriladi. Keling, endi qog'ozning turlari bilan tanishib chiqaylik.

Metallangan qog'oz, yaltiroq qog'oz

Bu qog'oz bilan ishlayotganda ehtiyot bo'lish kerak. Chunki ular buklash jarayonida tez sinadi. Ammo kerakli natijaga erishilsa, ketgan vaqtni oqlaydi.

Ikki tomonli qog'oz

Bu qog'ozni ikkala tarafi ham bir xil yoki turli xil ranglarga bo'yalgan bo'ladi. Bu qog'ozlardan yasalgan buyumlar har doim yorqin va chiroyli bo'ladi.



Bu qog'ozlar oldindan kvadrat shakliga keltirilgan bo'lib, turli o'lchamda va ranglarda chiqariladi. U juda ham yupqa, ammo mustahkam. Aynan shu hususiyati bilan qadrlanadi. Ammo uni topish oson emas.

Gulqog'oz

Bunday qog'ozlarga odatda sovg'alarni o'rashadi. U yetarlicha mustahkam, yengil va gullar tasviri bilan bezatilgan.



Uoshi va qog'ozning boshqa turlari.

Uoshi- yumshoq, to'lqinli yapon qog'ozini. Unda yasalgan buyumlar bir muncha yengilligi, nafisligi bilan ajralib turadi.



Qo'l ostidagi xomashyo

Maxsus qog'ozni izlashdan oldin, qo'l ostida nima borligiga ahamiyat bering. Ish uchun keraksiz qog'ozlar, eski gazetalar, jurnallar va salfetaklar ham kerak bo'ladi.



Asosiy shakl-“uchburchak” maketini tayyorlash bosqichlari





- 1-: kvadratni burchak tomonidan buklang.
 2-: sizda asosiy shakl -“uchburchak” hosil bo’ladi.

Qalpoqcha tayyorlash bosqichlari




- 1-: uchburchak qilib buklang.
 2-: to’g’ri burchakni teng 3 qismga bo’ling va chiziq bo’ylab burchaklarini yuqoriga qaratib buklang.



- 3-: chiqib qolgan burchaklarni yuqoriga buklab qo’ying.
 4-: qalpoqcha tayyor. Xohlasangiz, uni bo’yab qo’yishingiz mumkin.



Hokandoz (kurakcha), stakancha maketini tayyorlash bosqichlari

1
bPastki qismini uzunasiga
nga o'giring.

2

klang.

3-: hosil bo'lgan chiziq ichiga
o'ng va chap burchakni
kergizing.






4-: tog' ko'rinishida buklang va pastki qismini oching.




5-: yoying, so'ng o'giring.

6-: hokandoz tayyor.

”Stakancha” tayyorlash bosqichlari



1-:uchburchak hosil qiling. 2-:bukishni belgilang. Burchakni teng ikkiga bo'ling va shu chiziq bo'ylab buklang. 3-: o'ng va chap tomondagi nuqtalarni birlashtiring.




4-: ko'rsatilgan chiziq bo'ylab uzunasiga buking.


5-: tashqi qavatni maxsus cho'ntakka joylang.

Ichki qavatni buklarab qo'ying. 6-: stakan tayyor bo'ldi.

Qalpoqcha maketini tayyorlash bosqichlari




1-: uchburchak hosil qiling.
vertikal chiziq chizib, yuqori
qismini uzunasiga buklang.



2-: yon tomonlarini uzunasiga buklang.




3-: ustki qavatini tashqi tomonga buklang.



4-: uzunasiga ikkita taxt hosil qiling.




5-: qog'ozni ustki (yuqori) qismini yuqoriga (tashqi tomonga) buking.
6-: yon burchaklarini tog' ko'rinishida buking.




7-: mana nima hosil bo'ldi , yoying va o'giring. 8-: viking qalpog'I tayyor bo'ldi.

Kuchukcha maketini tayyorlash


bosqichlari




1-: asosiy shakl-“uchburchak” hosil qiling. Buklashni belgilang.



2-: burchaklarni uzunasiga buklang. Sizda quloqchalar hosil bo'ladi.




3-: yuqori qismini tog' ko'rinishida buklang, pastki qismini ham shu ko'rinishda buking.




4-: kuchukcha hosil bo'ldi. Uning yuzini qalam bilan chizib qo'yishingiz mumkin.

Mushukcha maketini tayyorlash bosqichlari




1-: asosiy shakl -“uchburchak” hosil qiling. Buklashni belgilang.




2-: mushukcha quloqlarini hosil qiling.



3-: ikki qavatini baravariga, uzunasiga buklang.




4-: mana sizda nima hosil bo'ldi. Boshqa tomonini o'giring.




5-: mushukcha tayyor. Uning yuzini qalam bilan chizib qo'ying.

Chivin maketini tayyorlash bosqichlari




1-: asosiy shakl -“uchburchak” hosil qiling.

2-: ikki burchagini markazga chiziq bo'ylab buking, o'giring.




3-: burchaklarni tashqariga buklang.

4-: qog'ozni ustki qavatini uzunasiga buklang.




5-: yana bir marotaba uzunasiga buklang.

6-: tayyor bo'lgan andozani o'rtasidan buking.



7- chivin tayyor bo'ldi.


Ko'rshapalak maketini tayyorlash bosqichlari




1-:uchburchak hosil qiling.2-:burchaklarini markaziy chiziqqa to'g'rilab buking




3-:berilgan chiziq bo'ylab, markazdan chekka tomonga qarab kesing, hosil bo'lgan uchburchakni ichkariga buking.




4-: chap tomonini o'rtaga buking. 5-: ko'rshapalakning qanotini chiqaring.



6-: o'ng tomonini ham huddi shunday qilib buking.



7-: uzunasiga buklab qo'ying. Mana sizda nima hosil bo'ldi.
Endi ko'rshapalakning boshini yasang.




8-: yuqori tomonidan, chekka qismini ozgina kesing.
 9-: mana sizda nima hosil bo'lishi kerak.




10-: ko'rshapalak tayyor.

Qalpoqcha maketini tayyorlash bosqichlari



1-: asosiy shakl-“uchburchak” hosil qiling. 2-: ikki burchaklarini o’rtaga buklang.



3-: qog’ozning ustki qavatini ehtiyotkorlik bilan tashqariga buklang.

4-: faqatgina bir qavatini yuqori tomonga buklang.




5-: pastki burchaklarini ustiga buklang va ichkariga kiriting.



6-: qalpoqcha tayyor bo’ldi.

Toshbaqa maketini tayyorlash bosqichlari




1-: asosiy shakl-“uchburchak” hosil qiling.
Ikki burchagini 3-burchakka birlashtirib buklang.



2-: ikki burchagini baravariga, uzunasiga buklang.
3-: burchaklarini tashqi tomonga chiqarib buklang, sizda toshbaqaning panjalari hosil bo'ladi.



4-: chiziq bo'ylab qog'ozning bir qavatini qaychi yordamida qirqing va uzunasiga buklang.





5-: burchaklarini ichkariga buklab qo'ying.
6-: yana bir marta uzunasiga buking va boshqa tomonini o'giring.





7-: toshbaqa tayyor.

Yulduzcha maketini tayyorlash bosqichlari





1-: asosiy shakl -“uchburchak” hosil qiling.

2-: burchaklarni markazga teng bukib, chiziq hosil qiling.





3-: yana bir marotaba uzunasiga buklang.

4-: o'ng tomonini chamalab, teng ikki qismga bo'ling. Bu chiziq bo'ylab yuqori qismini uzunasiga buklang.




5-: tog' ko'rinishida buklang. 6-: qog'ozning ichki qavatini chiqaring.




7-: yuqori qismini chap tomonga buking.


8-: o'ng tomonga uzunasiga buking.



9-: yuqoriga buklang.




10-: tayyor andozani ikkiga buklang.



11-: burchakni o'ng tomonga uzunasiga buklang.





12-: mana sizda nima hosil bo'ldi, o'girib qo'ying.




13-: yulduzcha tayyor bo'ldi.



Baliqcha maketini tayyorlash bosqichlari




1-: asosiy shakl-“uchburchak” hosil qiling. 2-:chetki qismlarini uzunasiga buklang.




3-: qog'ozning bir qavatini yuqoriga bukib, yana ikki marta uzunasiga buklang.
4-: yana bir marta uchburchak hosil qiling.



5-: burchaklarni yuqori tomonga bukib qo'ying.
6-: qog'ozning bir qavatini uzunasiga buklang.




7-: buklab chiziq hosil qiling.
8-: yana bir marotaba uzunasiga buklab, uchburchak hosil qiling.




9-: burchagini pastga buklab qo'ying.

10-: rasmda ko'rsatilganidek ikki tomonidan qirqing.



11-: qog'ozni pastki qismini yuqoriga bukid qo'ying.

12-: bir qavatini tashqariga chiqaring.



13-: uzunasiga chiziq belgilab, so'ng o'ng tomonini yoying.

Burchagini ozgina ichki tomonga bukid qo'ying.

14-: pastki qismini yuqoriga buking. Baliqning qorinchasi hosil bo'ladi.





15-: dumidan yarim aylana kesib tashlang.



16-: baliqcha tayyor.

Ko'z va suzgichlarini qalam bilan chizing.


Kabutar maketini tayyorlash bosqichlari





- 1-: asosiy shakl -“uchburchak” hosil qiling yon burchaklarini yuqori burchakka buklang.
2-: uzunasiga buklab, chiziq hosil qiling.



- 3-: yon tomonlarini o’rtaga buklab, yana ikkita chiziq hosil qiling.
4-: chiziq bo’ylab chetki qismlarini ichkariga kiring.



- 5-: tayyor andozani chap tomonini oching, so’ng boshqa tomonga o’giring.
6-: qog’ozning bir qavatini uzunasiga buking.




- 7-: yana bir marotaba uzunasiga buking.
Boshqa tomonini ham huddi shunday qilib buking.


8-: o'ng burchakni ichkariga buklang.



9-: uzunasiga, yuqori tomonga buklab qanotlarini ko'taring.
Boshqa tomonini ham huddi shunday qilib buklang.



10-: burchakni ichkariga qayirib, kabutarning boshini hosil qiling.



11-: mana sizda nima hosil bo'lishi kerak.
Bunday kabutarlardan bir nechta yasab, yuqoriga ilib qo'ying.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: 1997. -129 b.
2. Karimov I. A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. -T.: 1998. -480 b.
3. Qo'l mehnati faoliyatini tashkil etish metodikasi. Ma'ruzalar matni. TXTI, 2010. -310 b.
4. Mehnat ta'limi bo'yicha o'rta umumiy ta'lim maktablar uchun dastur. -T.: 1998. -35 b.
5. Jo'rayev A., Tojiboev R. Qo'l mehnati faoliyatini tashkil etish metodikasi. Toshkent, "Fan va texnologiya", 2007. -288 b.
6. Karimov R.I., Saliev A., Qo'l mehnati faoliyatini tashkil etish metodikasi. Toshkent, "Fan va texnologiya", 2005. -275 b.
7. Mavlonova R. va boshqalar. Mehnat ta'limi metodikasi. – T.: TDPU. 2006. -138 b.
8. Mavlonova R. Mehnat 3- sinf o'quvchilari uchun darslik.– T.: Mehnat, 1993. -142 b.
9. Mavlonova R. Mehnat 4-sinf o'quvchilari uchun darslik. – T.: 1993. -142 b.
10. Munavvarov T. Pedagogika. Toshkent, O'qituvchi 1996, -115 b.
11. Nigmatullaev S.I., Qo'l mehnati faoliyatini tashkil etish metodikasi. Toshkent, O'zbekiston, 2003. -128 b
12. P.R. Atutov. Maktabda politexnik ta'lim. Toshkent, 1998. -112 b.
13. Pereverten. Boshlang'ich sinflarda texnik ijodkorlik. Toshkent, O'qituvchi. 1989. -122 b.
14. R. Mavlonova, G. Mahmudova. Mehnat. 3-sinf o'quvchilari uchun darslik. Toshkent, O'qituvchi. 2005 y., 127 b.
15. R. Mavlonova. Mehnat ta'limi metodikasi. –T.: O'qituvchi. 1986. -142 b.
16. Txorjevskiy. Mehnat ta'limi metodikasi. Toshkent . O'qituvchi 1988. -200 b.
17. X. Sanaqulov, M. Xaydarov. Boshlang'ich sinflarda qog'ozdan amaliy ishlar. Toshkent. O'qituvchi. 1998. -98 b.
18. X. Egamov. O'zingiz quring va yasang. 1-sinf uchun. T.: O'qituvchi, 2000. -132 b.

Elektron ta'lim resurslari

- 1. www.tdpu.uz**
- 2. www.pedagog.uz**
- 3. www.Ziyonet.uz**
- 4. www.edu.uz**
- 5. tdpu-INTRANET.ped**

MUNDARIJA

	Kirish	3
1.	Qog'oz ishlab chiqarish bo'yicha qisqacha ma'lumot	4
2.	Boshlang'ich sinf mehnat talimi darslarida qog'oz bilan ishlashga o'rgatishning maqsad va vazifalari.....	7
3.	Origami bu - qog'ozni buklash san'ati	8
4.	Qog'oz va asbob-uskunalar	10
5.	Asosiy shakl "Uchburchaklar", "Qalpoqcha" maketini tayyorlash bosqichlari	12
6.	Hokandoz (kurakcha), Stakancha maketini tayyorlash bosqichlari	13
7.	"Stakancha" tayyorlash texnologiyasi bosqichlari	14
8.	Qalpoqcha maketini tayyorlash bosqichlari	15
9.	Kuchukcha maketini tayyorlash bosqichlari	16
10.	Mushukcha maketini tayyorlash bosqichlari	17
11.	Chivin maketini tayyorlash bosqichlari	18
12.	Ko'rshapalak maketini tayyorlash bosqichlari	19
13.	Qalpoqcha maketini tayyorlash bosqichlari	21
14.	Toshbaqa maketini tayyorlash bosqichlari	22
15.	Yulduzcha maketini tayyorlash bosqichlari	23
16.	Baliqcha maketini tayyorlash bosqichlari	25
17.	Kabutar maketini tayyorlash bosqichlari	27
18.	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	29

